DOI: https://doi.org/10.37547/supsci-ojp-06-I3-04 Pages: 26-37

Oriental Journal of Philology

ORIENTAL JOURNAL OF PHILOLOGY

journal homepage:
http://www.supportscience.uz/index.php/ojp/about

TERMINOLOGY OF HISTORICAL AND CULTURAL TOURISM IN THE ARABIC LANGUAGE: SEMANTIC AND DISCURSIVE ANALYSIS

Muhammad Yusuf M. Abdurakhmonov
Independent researcher
Department of Arabic Studies
Tashkent State University of Oriental Studies
Muhammadyusufabdurahmonov1997@gmail.com
Tashkent, Uzbekistan

ABOUT ARTICLE

Key words: historical and cultural tourism, Arabic linguistics, tourism terminology, discourse analysis, semantic analysis, tourism discourse, cultural heritage, historical narrative, cultural representation, persuasion.

Received: 08.05.26
Accepted: 09.05.26
Published: 10.05.26

Abstract: This article examines the semantic and discursive features of historical and cultural tourism terminology in the Arabic language. The study explores the linguistic nature of tourism terms, their nominative, conceptual, and pragmatic functions, as well as their role within tourism discourse. In addition, key terms related to historical, cultural, religious, archaeological, ethnographic, ethnic, anthropological, and ecological tourism are systematically analyzed, with particular attention to their semantic structure and discursive functions. The findings demonstrate that this terminology serves not only as a means of conveying information but also as a persuasive and communicative tool within tourism discourse.

ARAB TILIDA TARIXIY-MADANIY TURIZM TERMINOLOGIYASI: SEMANTIK VA DISKURSIV TAHLIL

Muhammad Yusuf M. Abdurahmonov
Mustaqil tadqiqotchi
Arabshunoslik oliy maktabi
Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti
Muhammadyusufabdurahmonov1997@gmail.com
Toshkent, O'zbekiston

MAQOLA HAQIDA

Kalit so'zlar: tarixiy-madaniy turizm, arab tilshunosligi, turizm terminologiyasi, diskurs tahlili, semantik tahlil, turizm diskursi, madaniy meros, tarixiy narrativ, madaniy

Annotatsiya: Mazkur maqolada arab tilida tarixiy-madaniy turizmga oid terminologiyaning semantik va diskursiv xususiyatlari tahlil qilinadi. Tadqiqotda turizm

reprezentatsiya, persuazivlik.

terminlarining lingvistik tabiati, ularning nominativ, konseptual va pragmatik funksiyalari hamda turizm diskursidagi o‘rni yoritilgan. Shuningdek, tarixiy, madaniy, diniy, arxeologik, etnografik, etnik, antropologik va ekologik turizmga oid asosiy terminlar tizimli ravishda tahlil qilinib, ularning semantik tuzilishi va diskursiv vazifalari aniqlangan. Natijada, ushbu terminologiya nafaqat axborot berish, balki persuaziv va kommunikativ ta’sir ko‘rsatish vositasi sifatida ham namoyon bo‘lishi asoslab beriladi.

ТЕРМИНОЛОГИЯ ИСТОРИКО-КУЛЬТУРНОГО ТУРИЗМА В АРАБСКОМ ЯЗЫКЕ: СЕМАНТИЧЕСКИЙ И ДИСКУРСИВНЫЙ АНАЛИЗ

Мухаммад Юсуф М. Абдурахмонов
Независимый исследователь
Высшая школа арабистики
Ташкентский государственный университет востоковедения
Muhammadyusufabdurahmonov1997@gmail.com
Ташкент, Узбекистан

О СТАТЬЕ

Ключевые слова: историко-культурный туризм, арабская лингвистика, туристическая терминология, дискурс-анализ, семантический анализ, туристический дискурс, культурное наследие, исторический нарратив, культурная репрезентация, персуазивность.

Аннотация: В данной статье рассматриваются семантические и дискурсивные особенности терминологии историко-культурного туризма в арабском языке. В исследовании анализируется лингвистическая природа туристических терминов, их номинативные, концептуальные и прагматические функции, а также их роль в туристическом дискурсе. Кроме того, системно исследуются основные термины, относящиеся к историческому, культурному, религиозному, археологическому, этнографическому, этническому, антропологическому и экологическому туризму, с акцентом на их семантическую структуру и дискурсивные функции. В результате установлено, что данная терминология выступает не только средством передачи информации, но и эффективным инструментом воздействия и коммуникации в туристическом дискурсе.

Kirish. Turizm (sayohat) qadimdan insonni turli sabablarga ko‘ra bir joydan boshqa joyga ko‘chishga majbur etuvchi tabiiy hodisa sifatida ma‘lum bo‘lgan. Ilk tarixiy bosqichlarda u sodda

va ibtidoiy ko‘rinishga ega bo‘lib, uning sabablari va vositalari ham juda oddiy edi. Biroq vaqt o‘tishi bilan bu sodda hodisa rivojlanib, bugungi kunda o‘zining institutlari va tamoyillariga ega bo‘lgan murakkab faoliyat turiga aylandi (Al-‘Ayidi, 2024, p. 4).

Turizm zamonaviy jamiyatda ko‘p qirrali ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy fenomen sifatida jahon miqyosida taraqqiyotning muhim omiliga aylandi. U turistlar, xizmat ko‘rsatuvchilar, davlatlar va mahalliy jamoalar o‘rtasidagi o‘zaro munosabatlar tizimi orqali namoyon bo‘lib, nafaqat iqtisodiy o‘sishni, balki madaniyatlararo muloqot va ijtimoiy transformatsiya jarayonlarini ham rag‘batlantiradi. Ayniqsa, turizmning ta‘siri hududning madaniy salohiyati va turizm oqimining jadalligiga bog‘liq holda turlicha namoyon bo‘lib, ayrim hollarda ijtimoiy tuzilma, atrof-muhit va mahalliy madaniyatda sezilarli o‘zgarishlarni keltirib chiqaradi.

Shu bilan birga, turizm rivojida madaniy-tarixiy omillar alohida ahamiyat kasb etadi. Madaniy meros, tarixiy yodgorliklar, an‘analar va urf-odatlar turistik jozibadorlikning asosiy manbalari hisoblanib, turistlarning kognitiv va ma‘naviy ehtiyojlarini qondirishga xizmat qiladi. Bu esa o‘z navbatida madaniyatlararo aloqalarni kuchaytirib, jamiyatlarning o‘zaro anglashuvini chuqurlashtiradi. Tarixiy-madaniy turizm iqtisodiy barqarorlikni ta‘minlashda ham muhim o‘rin tutadi, chunki u asosan ma‘naviy meros resurslariga tayanadi va ulardan samarali foydalanish imkonini beradi.

Zamonaviy turizmda til omili ham muhim o‘rin egallaydi. Turizm tili maxsus diskurs sifatida persuaziv xususiyatga ega bo‘lib, salohiyatli turistlarga ta‘sir ko‘rsatish va ularni jalb qilish vazifasini bajaradi. Turistik matnlar funksional jihatdan gibrid xarakterga ega bo‘lib, axborot berish, ishontirish va ta‘sir ko‘rsatish kabi kommunikativ vazifalarni birlashtiradi. Ularda ta‘sirchan leksika, obrazli ifodalar va madaniyatga xos elementlardan foydalanish orqali yuqori pragmatik samaradorlikka erishiladi.

Shu nuqtai nazardan, arab tilida tarixiy-madaniy turizmga oid terminologiyani o‘rganish alohida ilmiy ahamiyat kasb etadi. Xususan, “tarixiy-madaniy turizm” tushunchasi arab tilida “التاريخية الثقافية- السياحة” tarzida ifodalanib, unda “الثقافية” (madaniy) va “التاريخية” (tarixiy) komponentlari semantik jihatdan bir-birini to‘ldirib keladi.

Adabiyotlar tahlili va metodologiya. Turizm va uning til xususiyatlari zamonaviy lingvistika, madaniyatshunoslik va sotsiologiya kesishmasida keng o‘rganilgan sohalardan biri hisoblanadi. Xususan, turizmni ijtimoiy-iqtisodiy va kommunikativ jarayon sifatida talqin qilish C.R.Goeldner va J.B.Ritchie ishlarida tizimli yondashuv asosida yoritilgan bo‘lib, ular turizmni turli sub‘ektlar o‘rtasidagi o‘zaro ta‘sir majmuasi sifatida ta‘riflaydilar. J.Urry turizmni rekreatsion harakat sifatida izohlab, uning ijtimoiy tabiatiga e‘tibor qaratadi, R.Valdeon esa turizmni global iqtisodiy omil sifatida baholaydi.(Goeldner, 2006; Urry, 1990; Valdeon, 2009)

Turizm tili va uning diskursiv xususiyatlari bo‘yicha tadqiqotlarda M.S.Dann turizm tilining persuaziv tabiatini asoslab, uni “ishontirish va jalb qilishga qaratilgan til” sifatida tavsiflaydi. J.Munday va I.Munoz ishlarida turistik matnlarning gibrid funksional tabiati - axborot berish, ta‘sir ko‘rsatish va argumentativlik xususiyatlari - atroflicha tahlil qilingan. D.Trosborg esa turizm diskursidagi semantik va ritorik vositalar, jumladan, metaforalar, obrazli ifodalar va madaniyatga xos elementlarning o‘rnini ta‘kidlaydi (Munday, 2008; Munoz, 2011).

M.I.Daminov, M.G.Gadoyev, O.A.Ostonovlarning tadqiqotlarida O‘zbekistonda tarixiy-madaniy turizmning o‘ziga xos xususiyatlari, uni rivojlantirish omillari va ijtimoiy-iqtisodiy ahamiyati haqida ma’lumotlarga ega bo‘lamiz (Daminov, 2019; Ostonov, 2024). S.X.Maxmudov tadqiqotida tarixiy-madaniy turizmni shakllanishi ilmiy jihatdan asoslangan va uni rivojlanishida ba‘zi muammolar ko‘rsatilgan (Makhmudov, 2020).

A. Rizqiy, A.Q. Suadullah, S.Ubaydiy o‘z tadqiqotida antropologik merosning madaniy turizmni rivojlantirishdagi o‘rnini, uni barqaror rivojlanishning strategik resursi hamda mahalliy identitetni targ‘ib qilish vositasi sifatida tahlil qiladilar (Rizki, 2025).

Tarixiy-madaniy turizm va uning terminologiyasiga oid tadqiqotlar esa asosan madaniy meros, etnografiya va madaniyatlararo kommunikatsiya nuqtai nazaridan yoritilgan. Biroq arab tilidagi tarixiy-madaniy turizm terminlarining lingvistik tahlili yetarlicha tizimli o‘rganilmagan. Shu jihatdan mazkur tadqiqot arab tilidagi terminologik birliklarning semantik, pragmatik va diskursiv xususiyatlarini aniqlashga qaratilgani bilan ahamiyatlidir.

Natijalar. Tarixiy-madaniy turizm zamonaviy turizm sohasining muhim yo‘nalishlaridan biri bo‘lib, u sayyohlarning muayyan mamlakat tarixi, madaniyati va an‘analariga bo‘lgan qiziqishi bilan bevosita bog‘liqdir. Ushbu turizm turi nafaqat tarixiy yodgorliklarni tomosha qilish, balki xalqning ma‘naviy merosi, urf-odatlari va turmush tarzi bilan yaqindan tanishish imkonini ham beradi. “Tarixiy-madaniy turizm kishilarga har bir mamlakatning tarixini uning o‘tmishdagi voqea-hodisalarini, xalqning urf-odatlarini, turmush tarzini tanishtiradi”. (Makhmudov, 2020, p. 197).

Tarixiy-madaniy turizmning asosiy yo‘nalishlaridan biri - tarixiy turizm (التاريخية السياحة) bo‘lib, u mamlakat tarixi, tarixiy yodgorliklar va muhim voqealarga qiziqishni o‘z ichiga oladi. Bunda sayyohlar turli davrlarga oid arxitektura yodgorliklari, muzeylar va tarixiy maskanlarga tashrif buyuradilar. Ushbu yo‘nalish sayyohlarning mamlakat tarixi, uning boy madaniy merosi (الثقافي التراث) hamda muhim tarixiy voqealariga bo‘lgan qiziqishini qamrab oladi. Shu nuqtai nazardan, tarixiy turizm nafaqat ma‘lumot manbai, balki o‘tmishni anglash va uning madaniy qiymatlarini idrok etishga xizmat qiluvchi kognitiv jarayon sifatida namoyon bo‘ladi.

Mazkur jarayonda sayyohlar turli davrlarga oid tarixiy obidalar (التاريخية المعالم), arxeologik obidalar (الأثرية المواقع) va muzeylarga (المتاحف) tashrif buyurish orqali madaniy meros bilan bevosita tanishadilar. Bu kabi ob‘ektlar madaniy merosning moddiy ko‘rinishlari sifatida nafaqat estetik qiymatga, balki yuqori tarixiy qiymatga (التاريخية القيمة) ham ega. Ayni paytda, muzeylar va tarixiy maskanlar ta’limiy funksiya va kognitiv funksiyani bajarib, tarixiy bilimlarni tizimli ravishda yetkazishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Shu bilan birga, tarixiy turizm jarayonida sayyohning shaxsiy ishtiroki va qabul qilish jarayoni muhim o‘rin tutadi. Bu holat turistik tajriba (التجربة السياحية) va madaniy tajriba (التجربة الثقافية) orqali ifodalanib, sayyohning madaniy muhitni bevosita his etishiga xizmat qiladi. Natijada, tarixiy ob‘ektlar va maskanlar nafaqat o‘tmishning guvohi sifatida, balki zamonaviy madaniy muloqotning faol elementi sifatida ham namoyon bo‘ladi. Bu jarayonda madaniy o‘zaro ta’sir (التفاعل الثقافي) va madaniy almashinuv (التبادل الثقافي) kabi tushunchalar muhim o‘rin egallaydi.

Diskursiv nuqtai nazardan, tarixiy turizm doirasida shakllanuvchi turistik diskurs (الخطاب السياحي) maxsus til vositalari orqali amalga oshiriladi. Xususan, tarixiy ob‘ektlar ko‘pincha ijobiy baholovchi va ta‘sirchan til birliklari orqali tavsiflanib, persuaziv ta’sirni kuchaytirishga xizmat qiladi. Bunda tarixiy narrativ (السرد التاريخي) va madaniy reprezentatsiya (التمثيل الثقافي) mexanizmlari orqali tarixiy voqelik jozibador va mazmunli tarzda taqdim etiladi. Natijada, sayyohlarda muayyan manzilga nisbatan ijobiy kognitiv va emotsional munosabat shakllanadi.

Bu terminologik birliklar tarixiy-madaniy turizm diskursining semantik va funksional xususiyatlarini aniq aks ettiradi. Xususan, السياحة التاريخية, التراث الثقافي, المعالم التاريخية, المواقع الأثرية, المتاحف kabi terminlar nominativ birliklar sifatida muayyan turizm obyektlarini ifodalasa, ayni paytda ular tarixiylik, qadriyat va madaniy ahamiyat kabi keng semantik komponentlarni ham o‘z ichiga oladi. Ushbu terminlar ko‘pincha aniqlanmish–sifat modelida (masalan, المعالم التاريخية) yoki izofa konstruktsiyasi asosida shakllanib, semantik jihatdan aniqlik va tizimlilikni ta’minlaydi. Shu bilan birga, التجربة السياحية, التفاعل الثقافي, السرد التاريخي kabi birliklar abstrakt va konseptual xarakterga ega bo‘lib, turizm jarayonining kognitiv va diskursiv jihatlarini ifodalaydi. Natijada, mazkur terminlar bir tomondan axborotni aniq yetkazishga xizmat qilsa, ikkinchi tomondan, baholovchi va ta‘sirchan kontekstda qo‘llanilib, turizm diskursida persuaziv va pragmatik funksiyalarni ham amalga oshiradi.

Tarixiy turizm tarixiy-madaniy turizm tizimida markaziy o‘rinni egallab, madaniy merosni anglash, uni saqlash va targ‘ib etishda muhim omil sifatida namoyon bo‘ladi. U nafaqat sayyohlarning bilim doirasini kengaytiradi, balki madaniyatlar o‘rtasidagi muloqot va o‘zaro

tushunishni ham rag‘batlantiradi. Tarixiy turizm tushunchasi doirasida sayyoh ongida eng barqaror saqlanib qoladigan jihat — bu uning bevosita turistik tajribalarni boshdan kechirishi bilan bog‘liqdir. Bunday tajribalar, odatda, sayyohning shaxsiy qiziqishlari va hobbilariga mos keluvchi maskanlarga tashrif bilan uyg‘unlashadi. Tarixiy turizmga qiziquvchi sayyohlar uchun tarixiy va arxeologik yodgorliklarni tomosha qilish, muzeylarga tashrif buyurish kabi faoliyat turlari eng afzal va ommalashgan yo‘nalishlardan biri sifatida e‘tirof etiladi. (https://mawdoo3.com/ السياحة_التاريخي)

Tarixiy-madaniy turizm doirasida madaniy tadbirlarga bo‘lgan qiziqish muhim o‘rin tutadi. Zero, madaniy tadbirlar (الفعاليـات الثقافيـة) sayyohlar uchun nafaqat axborot manbai, balki madaniyatni bevosita his qilish imkonini beruvchi amaliy muhit sifatida namoyon bo‘ladi. Xususan, festivallar (المهرجانات), an‘anaviy bayramlar (الاحتفالات التقليديـة) va turli madaniy faoliyatlar (الأنشطة الثقافية) doirasida ishtirok etish orqali sayyohlar mahalliy madaniyatning jonli namoyonlarini kuzatish va unda ishtirok etish imkoniyatiga ega bo‘ladilar. Bu esa madaniy turizmning asosiy xususiyatlaridan biri bo‘lgan madaniy tajribani shakllantiradi.

Shu bilan birga, bunday tadbirlar jarayonida madaniy o‘zaro ta‘sir (التفاعل الثقافي) va madaniy almashinuv (التبـادل الثقـافي) jarayonlari faollashadi. Sayyohlar mahalliy aholi bilan muloqotga kirishib, ularning urf-odatlari, an‘analari va qadriyatlarini amalda anglash imkoniga ega bo‘ladilar. Bu holat esa o‘z navbatida madaniy integratsiya (الاندماج الثقـافي) jarayonini rag‘batlantirib, sayyohning madaniy muhitga chuqurroq kirib borishini ta‘minlaydi. Natijada, madaniy turizm faqatgina kuzatuv emas, balki faol ishtirok va anglash jarayoni sifatida shakllanadi.

Mazkur jarayonlarning diskursiv ifodasi ham alohida ahamiyatga ega. Xususan, madaniy turizm diskursi (الخطاب الثقافي السياحي) doirasida madaniy tadbirlar ko‘pincha ijobiy baholovchi va ta‘sirchan til vositalari orqali tavsiflanadi. Madaniy tadbirlar madaniy turizmning muhim tarkibiy qismi sifatida sayyohning tajribasini boyitadi, madaniyatlar o‘rtasidagi muloqotni kuchaytiradi va turizm diskursida persuaziv hamda pragmatik vazifalarni amalga oshiradi.

Yuqoridagi terminlar tarixiy-madaniy turizmning turli qirralarini ifodalovchi ko‘p qatlamli tizimni tashkil etadi. Jumladan, السياحة التاريخية, التراث الثقافي, المعالم التاريخية, المواقع الأثرية kabi birliklar aniq referensial mazmunga ega bo‘lib, tarixiy obyekt va hodisalarni belgilash vazifasini bajaradi. Biroq التجربة السياحية, التفاعل الثقافي, السرد التاريخي singari tushunchalar esa hodisaning bevosita emas, balki idrok etilish jarayoni, ya’ni inson ongidagi aksini ifodalaydi. Shu jihatdan, bir guruh terminlar real obyektlarga yo‘naltirilgan bo‘lsa, boshqalari konseptual va interpretativ

xarakter kasb etadi. Natijada, matnda moddiy va nomoddiy mazmun uyg‘unlashib, turizm hodisasi nafaqat faktlar yig‘indisi, balki ma’no yaratish jarayoni sifatida ham talqin qilinadi.

Tarixiy-madaniy turizmning yana bir muhim yo‘nalishi sifatida diniy turizm (السياحة الدينية) alohida o‘rin egallaydi. Ushbu turizm turi din va e‘tiqod bilan bog‘liq bo‘lgan diniy qadamjolarga (المواقع الدينية) tashrif buyurishni qamrab oladi hamda sayyohlarning ma‘naviy va madaniy ehtiyojlarini qondirishga xizmat qiladi. Shu jihatdan, diniy turizm nafaqat sayohat shakli, balki insonning ma‘naviy dunyosi va e‘tiqodiy qadriyatlari bilan uzviy bog‘liq bo‘lgan kompleks ijtimoiy-madaniy hodisa sifatida qaraladi.

Mazkur yo‘nalish doirasida sayyohlar turli ibodat joylari (أماكن العبادة), ziyoratgohlar (المزارات) va tarixiy-diniy ahamiyatga ega ob‘ektlarga tashrif buyuradilar. Bunday ob‘ektlar madaniy merosning ajralmas qismi sifatida yuqori ma’naviy va tarixiy qiymatga ega bo‘lib, sayyohlarda diniy va tarixiy ongni shakllantirishga xizmat qiladi. Shu bilan birga, ushbu jarayonda diniy marosimlar (الطقوس الدينية) va diniy an’analar (التقاليد الدينية) bilan tanishish muhim ahamiyat kasb etadi.

Diniy turizm jarayonida sayyohning shaxsiy ishtiroki va ichki qabul qilish jarayoni markaziy o‘rin tutadi. Bu holat ma’naviy va madaniy tajriba orqali namoyon bo‘lib, sayyohning nafaqat bilim, balki ruhiy jihatdan ham boyishini ta‘minlaydi.

Diskursiv jihatdan, diniy turizm doirasida shakllanuvchi diniy turizm diskursi (الخطاب الديني السياحي) o‘ziga xos xususiyatlarga ega bo‘lib, unda ehtirom, muqaddaslik va ma‘naviylikni ifodalovchi til vositalari ustuvorlik qiladi. Diniy turizm tarixiy-madaniy turizm tizimida muhim o‘rin tutib, insonning ma‘naviy ehtiyojlarini qondirish, madaniy merosni anglash va uni saqlash jarayonida muhim omil sifatida namoyon bo‘ladi.

Mazkur terminlar diniy turizmning mazmuniy doirasini ikki asosiy yo‘nalishda ochib beradi. Bir tomondan, السياحة الدينية, المواقع الدينية, أماكن العبادة, المزارات kabi birliklar aniq diniy makon va obyektlarni belgilab, referensial funksiyani bajaradi. Ikkinchi tomondan, الطقوس الدينية va التقاليد الدينية kabi tushunchalar diniy amaliyot va an’anaviy xulq-atvor shakllarini ifodalab, jarayonning madaniy-dinamik tomonini yoritadi. Shu tariqa, matnda makoniy va amaliy komponentlar o‘zaro uyg‘unlashib, diniy turizm faqat geografik harakat emas, balki ma’naviy tajriba va qadriyatlar tizimi bilan bog‘liq murakkab hodisa sifatida talqin qilinadi.

Tarixiy-madaniy turizmning muhim tarkibiy yo‘nalishlaridan biri sifatida arxeologik turizm (السياحة الأثرية) alohida ahamiyat kasb etadi. Ushbu yo‘nalish qadimiy sivilizatsiyalar, ularning moddiy merosi hamda arxeologik yodgorliklarga bo‘lgan qiziqish asosida shakllanadi. Shu jihatdan, arxeologik turizm sayyohlarga insoniyat tarixining ilk bosqichlari va madaniy taraqqiyot

jarayonlarini chuqurroq anglash imkonini beruvchi muhim kognitiv va ilmiy-praktik vosita sifatida namoyon bo‘ladi.

Mazkur turizm doirasida sayyohlar turli arxeologik obidalar (المواقـع الأثريـة), qadimiy shaharlar (المدن القديمة) va arxeologik qazilmalar (الحفريات الأثرية) bilan tanishadilar. Bunday ob‘ektlar insoniyat sivilizatsiyasining rivojlanish bosqichlarini o‘rganishda muhim manba hisoblanadi. Ayni paytda, arxeologik ob‘ektlar nafaqat o‘tmishning moddiy izlari, balki zamonaviy ilmiy tadqiqotlarning muhim ob‘ekti sifatida ham ahamiyatga ega.

Shu bilan birga, sayyohlar arxeologik ekspeditsiyalar (البعثات الأثرية) va ilmiy tadqiqot jarayonlarida ishtirok etish orqali tarixni amalda o‘rganish imkoniyatiga ega bo‘ladilar. Bu holatlarning barchasi sayyohning bilim doirasini kengaytiradi hamda uning ilmiy qiziqishini oshiradi. Natijada, arxeologik turizm passiv kuzatuv emas, balki faol ishtirok va anglash jarayoni sifatida namoyon bo‘ladi.

Diskursiv nuqtai nazardan, arxeologik turizm doirasida shakllanuvchi arxeologik turizm diskursi (الخطاب السياحي الأثري) maxsus ilmiy va tavsifiy til vositalari orqali amalga oshiriladi. Arxeologik turizm tarixiy-madaniy turizmning muhim yo‘nalishi sifatida insoniyat tarixi va madaniy merosni chuqur anglash, uni o‘rganish va saqlash jarayonida muhim o‘rin tutadi.

Ushbu arxeologik turizmga oid terminlar mazmuniy jihatdan ilmiylik va tarixiylikni uyg‘unlashtiradi. السياحة الأثرية, المواقع الأثرية, الحفريات الأثرية kabi birliklar moddiy dalillar va ilmiy tadqiqot obyektlarini ifodalab, aniq predmetli mazmunga ega bo‘lsa, المدن القديمة esa tarixiy makon tushunchasini kengroq kontekstda aks ettiradi. Shu bilan birga, البعثات الأثرية termini jarayoniylikni bildirib, ilmiy faoliyatning dinamik tomonini ochib beradi. Natijada, ushbu terminlar tizimi orqali arxeologik turizm nafaqat tarixiy obyektlarni kuzatish, balki ilmiy bilish va tajriba orttirish bilan bog‘liq faol jarayon sifatida talqin qilinadi.

Tarixiy-madaniy turizmning muhim tarkibiy yo‘nalishlaridan biri sifatida etnografik turizm (السياحة الإثنوغرافية) alohida ahamiyat kasb etadi. Ushbu yo‘nalish turli xalqlarning turmush tarzi, madaniy an‘analari va ijtimoiy hayotiga bo‘lgan qiziqish asosida shakllanadi. Shu jihatdan, etnografik turizm sayyohlarga xalq madaniyatini bevosita kuzatish va anglash imkonini beruvchi muhim ijtimoiy-madaniy jarayon sifatida namoyon bo‘ladi.

Mazkur turizm doirasida sayyohlar milliy kiyimlar (الأزياء التقليديـة), til (للغـة), folklor (الفولكلور), urf-odat va an’analar (العادات والتقاليد) hamda ijodiy meros (التراث الإبداعي) kabi madaniy elementlar bilan tanishadilar. Ushbu elementlar xalqning madaniy identifikatsiyasini (الهوية الثقافية) ifodalovchi muhim omillar bo‘lib, ular orqali jamiyatning tarixiy va madaniy

xususiyatlari namoyon bo‘ladi. Shu bilan birga, etnografik ob‘ektlar va an‘analar madaniy merosning nomoddiy shakli sifatida alohida ahamiyatga ega.

Bu etnografik turizmga oid terminlar asosan nomoddiy madaniyatni ifodalovchi birliklar sifatida namoyon bo‘ladi. الأزياء التقليدية, الفولكلور, العادات والتقاليد kabi tushunchalar xalqning kundalik hayoti va an’anaviy amaliyotlarini aks ettirib, madaniyatning tashqi ko‘rinishlarini belgilaydi, اللغة esa kommunikativ va identifikatsion vosita sifatida alohida o‘rin tutadi. Shu bilan birga, التراث الإبداعي va الهوية الثقافية kabi birliklar madaniyatning ichki, konseptual qatlamlarini ifodalab, uning mazmunan chuqurroq anglanishini ta‘minlaydi. Shu tarzda, mazkur terminlar tizimi orqali etnografik turizm madaniyatni nafaqat kuzatish, balki uning ma‘no va qadriyatlarini anglashga qaratilgan jarayon sifatida talqin qilinadi.

Etnografik turizm madaniy turizm tizimida muhim o‘rin tutib, xalqlarning madaniy merosini anglash, saqlash va targ‘ib etishda muhim vosita sifatida namoyon bo‘ladi.

Tarixiy-madaniy turizmning o‘ziga xos yo‘nalishlaridan biri sifatida etnik turizm (السياحة الإثنية) alohida ahamiyat kasb etadi. Этнотуризм маданий туризмнинг ихтисослашган тури ҳисобланади ва у табиатдан кўра инсон фаолиятига йўналтирилган ҳамда сайёҳга маҳаллий аҳолининг турмуш тарзи ҳақида тушунча беришни мақсад қилган ҳар қандай саёҳат сифатида таърифланади (Bolnick, 2003, p.7). Ushbu turizm turi insonning o‘z ajdodlari, ularning tarixi va madaniy merosi bilan bog‘liq ildizlarini o‘rganishga qaratilgan bo‘lib, shaxsning etnik mansubligini anglash jarayonida muhim vosita sifatida namoyon bo‘ladi. Shu jihatdan, etnik turizm nafaqat sayohat shakli, balki insonning o‘zlikni anglash va identifikatsiya jarayoni bilan uzviy bog‘liq bo‘lgan ijtimoiy-madaniy hodisa hisoblanadi.

Mazkur yo‘nalish doirasida sayyohlar ajdodlar vatani (الوطن الأم), milliy meros (التراث القومي) va etnik aloqalar (الروابط الإثنية) kabi tushunchalar bilan bog‘liq maskan va manbalarga murojaat qiladilar. Bu jarayonda inson o‘z tarixiy kelib chiqishi, madaniy an‘analari va ijtimoiy ildizlarini chuqurroq anglash imkoniga ega bo‘ladi.

Ushbu etnik turizmga oid terminlar shaxsning kelib chiqishi va o‘zlikni anglash jarayoni bilan bog‘liq semantik maydonni shakllantiradi. السياحة الإثنية umumiy yo‘nalishni bildirsa, الوطن الأم va التراث القومي birliklari tarixiy xotira hamda kollektiv meros tushunchalarini ifodalaydi. Shu bilan birga, الروابط الإثنية atamasi ijtimoiy bog‘liqlik va mansublikni anglatib, insonning muayyan etnik guruhga daxldorligini ko‘rsatadi. Shu tarzda, mazkur terminlar birgalikda individual identifikatsiya va jamoaviy xotirani uyg‘unlashtirib, etnik turizmni shaxsiy tajriba va ijtimoiy ma‘no bilan bog‘liq jarayon sifatida talqin qilishga xizmat qiladi.

Etnik turizm madaniy turizmning muhim tarkibiy qismi sifatida insonning o‘zlikni anglash, etnik mansubligini shakllantirish va madaniy merosni chuqur idrok etish jarayonida muhim ahamiyat kasb etadi.

Tarixiy-madaniy turizmning ilmiy-tadqiqot yo‘nalishlaridan biri sifatida antropologik turizm (السياحة الأنثروبولوجية) alohida ahamiyat kasb etadi. Ushbu yo‘nalish inson va jamiyat taraqqiyotini o‘rganishga qaratilgan bo‘lib, turli xalqlarning ijtimoiy tuzilishi, madaniy amaliyotlari va kundalik hayot tarzi bilan tanishish imkonini beradi. Shu jihatdan, antropologik turizm sayyoh uchun faqat kuzatuv emas, balki inson faoliyati va ijtimoiy jarayonlarni chuqur anglashga xizmat qiluvchi ilmiy-kognitiv jarayon sifatida namoyon bo‘ladi.

Mazkur yo‘nalish doirasida sayyohlar turmush tarzi (أنماط الحياة), ijtimoiy muhit (البيئة الاجتماعية), ijtimoiy tuzilma (البنية الاجتماعية) va madaniy amaliyotlar (الممارسات الثقافية) kabi omillarni kuzatadilar. Ushbu elementlar jamiyatning rivojlanish darajasi va madaniy xususiyatlarini aks ettiruvchi muhim indikatorlar bo‘lib xizmat qiladi. Ayni paytda, antropologik kuzatuvlar inson va jamiyat o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlikni ochib berishga qaratilgan bo‘ladi.

Mazkur antropologik turizmga oid terminlar ijtimoiy voqelikni tizimli tarzda tavsiflashga xizmat qiluvchi konseptual birliklar sifatida namoyon bo‘ladi. السياحة الأنثروبولوجية umumiy yo‘nalishni belgilab bersa, أنماط الحياة va الممارسات الثقافية inson faoliyatining kundalik va madaniy ko‘rinishlarini aks ettiradi. Shu bilan birga, البيئة الاجتماعية va البنية الاجتماعية tushunchalari jamiyatning ichki tuzilishi va o‘zaro munosabatlar tizimini ifodalaydi. Natijada, ushbu terminlar orqali antropologik turizm alohida hodisalar yig‘indisi sifatida emas, balki inson va jamiyat o‘rtasidagi murakkab bog‘liqlikni ochib beruvchi tahliliy model sifatida talqin qilinadi.

Antropologik turizm tarixiy-madaniy turizmning ilmiy asoslangan yo‘nalishi sifatida inson va jamiyat taraqqiyotini o‘rganish, madaniy xilma-xillikni anglash va ijtimoiy tajribani boyitishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Tarixiy-madaniy turizmning zamonaviy va kompleks yo‘nalishlaridan biri sifatida tabiiy-ekologik madaniy turizm (السياحة البيئية الثقافية) alohida ahamiyat kasb etadi. Ushbu yo‘nalish madaniyat va tabiat o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlikni aks ettirib, inson faoliyati va tabiiy muhitning o‘zaro ta‘sirini o‘rganishga qaratilgan. Shu jihatdan, ekologik yo‘nalish madaniy turizmning integrativ shakli sifatida namoyon bo‘lib, tabiiy va madaniy merosni bir butun tizim sifatida qabul qilish imkonini beradi.

Mazkur turizm doirasida sayyohlar tabiiy obidalar (المعالم الطبيعية), tabiat qo‘riqxonalari (المحميات الطبيعية) va tabiiy-madaniy majmualarga (المواقع الثقافية الطبيعية المشتركة) tashrif buyuradilar. Bunday ob‘ektlar inson va tabiat o‘rtasidagi tarixiy va madaniy aloqalarni namoyon

etadi. Shu bilan birga, ushbu ob‘ektlar barqaror rivojlanish tamoyillariga asoslangan holda muhofaza qilinadi.

Shu bilan birga, sayyohlar turli ekologik dasturlar (البرامج البيئية) va ekologik-madaniy faoliyatlarda (الأنشطة الثقافية البيئية) ishtirok etish orqali tabiat va madaniyat uyg‘unligini amalda his qilish imkoniyatiga ega bo‘ladilar. Bu jarayonlar sayyohning dunyoqarashini kengaytiradi hamda ekologik ongni shakllantirishga xizmat qiladi.

Diskursiv nuqtai nazardan, mazkur yo‘nalishda shakllanuvchi ekologik turizm diskursida (الخطاب البيئي السياحي) tabiatni muhofaza qilish, barqaror rivojlanish va madaniy merosni saqlash g‘oyalari ustuvorlik qiladi. Tabiiy-ekologik yo‘nalish madaniy turizm tizimida muhim o‘rin tutib, tabiat va madaniyat o‘rtasidagi uyg‘unlikni anglash, ularni muhofaza qilish va barqaror rivojlanishni ta‘minlashda muhim omil sifatida namoyon bo‘ladi.

Ushbu tabiiy-ekologik turizmga oid terminlar o‘zaro integratsiyalashgan semantik maydonni hosil qiladi. السياحة البيئية الثقافية atamasi o‘zida ikki konsept – ekologiya va madaniyatni birlashtirgan holda kompleks mazmunni ifodalaydi. المعالم الطبيعية va المحميات الطبيعية kabi birliklar tabiiy obyektlarni belgilasa, المواقع الثقافية الطبيعية المشتركة esa tabiat va madaniyat kesishgan nuqtalarni anglatadi. Shu bilan birga, البرامج البيئية va الأنشطة الثقافية البيئية tushunchalari jarayon va faoliyatga oid ma‘nolarni ifodalab, ekologik yondashuvning amaliy jihatini ochib beradi. Shu tarzda, mazkur terminlar tizimi orqali ekologik turizm inson, tabiat va madaniyat o‘rtasidagi muvozanatni ta‘minlashga qaratilgan konseptual model sifatida talqin qilinadi.

Xulosa. Mazkur tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, arab tilida tarixiy-madaniy turizm terminologiyasi murakkab semantik va diskursiv xususiyatlarga ega bo‘lib, u turizm sohasining kommunikativ va persuaziv ehtiyojlarini samarali aks ettiradi. Tahlil jarayonida aniqlanishicha, ushbu terminlar nafaqat ma’lum bir turizm yo‘nalishini ifodalovchi nominativ birliklar sifatida, balki muayyan madaniy, tarixiy va ijtimoiy mazmunni uzatuvchi muhim lingvistik vositalar sifatida ham namoyon bo‘ladi.

Shuningdek, tarixiy, madaniy, diniy, arxeologik, etnografik, etnik, antropologik va ekologik turizmga oid terminlar o‘zining semantik tuzilishi, abstraktlik darajasi hamda pragmatik yuklamasi bilan farqlanib, turizm diskursining turli funksional qatlamlarini shakllantirishda faol ishtirok etadi. Xususan, ayrim terminlar ilmiy-analitik xususiyatga ega bo‘lsa, boshqalari baholovchi va ta’sirchan leksika bilan uyg‘unlashgan holda yuqori darajadagi persuazivlikni ta’minlaydi.

Natijada, arab tilidagi tarixiy-madaniy turizm terminologiyasi turizm diskursida nafaqat axborot berish, balki sayyohning kognitiv va emotsional qabuliga ta’sir ko‘rsatish, madaniy muhitni jozibador tarzda talqin qilish hamda madaniyatlararo muloqotni rivojlantirish kabi muhim

funksiyalarni bajaradi. Mazkur holat ushbu terminologiyaning lingvistik va diskursiv jihatdan chuqur o‘rganilishini dolzarb ilmiy masala sifatida namoyon etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Bolnick, S. (2003) Promoting the Culture Sector through Job Creation and Small Enterprise Development in SADC Countries: The Ethno-tourism Industry. – Geneva. International Labour Office. – 79 p. (in English)

2. Daminov, M.I., Gadoev, M.G. (2019) Historical and Cultural Tourism in Uzbekistan. Istoriko-kulturniy turizm v Uzbekistane. https://cyberleninka.ru/article/n/istoriko-kulturnyy-turizm-v-uzbekistane/viewer (in Uzbek)

3. . Dann, M. S. (1996). The language of tourism: A sociolinguistic perspective. – Oxford: CAB international. (in English)

4. Goeldner, C. R., & Ritchie, J. B. (2006). Tourism: Principles, practices and philosophies. New Jersey: John Wiley & Sons. (in English)

5. Makhmudov, S. (2020). The formation of historical and cultural tourism and some problems in its development // Economics and Education. Tarixiy-madaniy turizmning shakllanishi va uning rivojlanishidagi ba‘zi muammolar // Iqtisodiyot va ta‘lim /, № 1. – Pp. 195-198. (in Uzbek)

6. Munday, J. (2008). Style and ideology in translation: Latin American writing in English. – London & New York: Routledge. (in English)

7. Munoz, I. (2011). Tourist translations as a mediation tool, misunderstandings and difficulties. – Quadernos de Traduçã, 27, 1. – Pp. 29-49. (in English)

8. Ostonov, O. A. (2024). Some features of historical and cultural tourism in Uzbekistan. O‘zbekistonda tarixiy-madaniy turizmning ba’zi xususiyatlari. In International scientific and practical conference //The Silk Road: Cooperation through the prism of tourism. October 10-11. – Pp. 511-515. (in Uzbek)

9. Rizki, A., Suad Allah, A.Q., Ubaydi, S. (2025) Anthropological Heritage and Cultural Tourism: An Innovative Approach to Marketing Local Identity through Digitalization and Sustainable Development. Al-Turas al-antrubulujiy va al-siyahat al-saqafiyya: nahvamuqariba mubtakira ltasviq al-huviya al-mahaliyya fi dav’I istratijiyyat al-raqamiyya va al-tanmiyya al-mustadama// Journal of Anthropology. 2025, Volume 11, No. 2. – Pp. 197-215. (in Arabic)

10. Trosborg, A. (2000). Discourse analysis as part of translator training, Current Issues in

Language & Society, 7,3. – Pp. 185-228. (in English)

11. Urry, J. (1990). The consumption of tourism, Sociology, 24, 1. – Pp. 23-35. (in English)

12. Valdeón, R. (2009). Info-promotional material discourse and its translation: The case of the Austrian tourist board texts, Across Languages and Cultures, 10, 1. – Pp. 21-47. (in English)